

XITOIY TILIDAN O‘ZBEK VA O‘ZBEK TILIDAN XITOIY TILIGA QILINGAN ASARLAR TARJIMASI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2025-26-389-394>

Xasanova Shaxzoda,

PhD, v.b. dotsent

TMC instituti

xasanovashaxzoda@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Xitoy va O‘zbekiston o‘rtasidagi madaniy-adabiy aloqalarning muhim yo‘nalishlaridan biri – tarjima jarayoni tahlil qilinadi. Xitoy adabiyoti namunalarining o‘zbek tiliga, shuningdek, o‘zbek adabiyoti asarlarining xitoy tiliga o‘girilishi tarixiy bosqichlar, tarjima maktablari va tarjimonlar faoliyati misolida ko‘rib chiqiladi. Maqolada asosan XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida amalga oshirilgan tarjimalar haqida ma’lumot berilib, ayrim asarlarning bevosita tarjima qilinmagan, balki rus tili vositachiligida o‘zbek va xitoy tillariga o‘tkazilgani ham qayd etiladi. Shuningdek, o‘zbek va xitoy adabiyoti o‘rtasidagi tarjima jarayoni ikki xalqning madaniy integratsiyasi va adabiy muloqotining muhim omili sifatida yoritiladi. Mazkur maqola shu kunga qadar o‘zbek tilidan xitoy tiliga hamda xitoy tilidan o‘zbek tiliga qilingan tarjima asarlar haqida boradi. Maqolada o‘zbek tarjimashunoslarini qilgan mehnatlarini olib chiqish dolzarblikni aks ettiradi*

Kalit so‘zlar: *Xitoy tili, o‘zbek tili, tarjima, madaniy almashinuv, adabiy asar, lingvistik xususiyatlar, tarjima usullari, ekvivalentlik, adekvat tarjima, tarjimonlik mahorati, madaniyatlararo muloqot.*

Аннотация. *В данной статье анализируется один из важных аспектов культурно-литературных связей между Китаем и Узбекистаном — процесс перевода. Рассматриваются исторические этапы перевода произведений китайской литературы на узбекский язык, а также произведений узбекской литературы на китайский язык, деятельность переводческих школ и отдельных переводчиков. Основное внимание уделено переводам, выполненным во второй половине XX века и в начале XXI века. Отмечается, что некоторые произведения переводились не напрямую, а с посредничеством русского языка. Переводческий процесс между узбекской и китайской литературой представлен как важный фактор культурной интеграции и литературного диалога двух народов. В статье подчеркивается*

актуальность исследования трудов узбекских переводчиков и их вклада в развитие межкультурного общения.

Ключевые слова: *китайский язык, узбекский язык, перевод, культурный обмен, литературное произведение, лингвистические особенности, методы перевода, эквивалентность, адекватный перевод, переводческое мастерство, межкультурная коммуникация.*

Abstract. *This article analyzes one of the key aspects of cultural and literary relations between China and Uzbekistan — the process of translation. It examines the historical stages of translating Chinese literary works into Uzbek and Uzbek literary works into Chinese, focusing on translation schools and the activities of translators. Particular attention is given to translations carried out in the second half of the 20th century and the early 21st century. It is noted that some works were not translated directly but through Russian as an intermediary language. The translation process between Uzbek and Chinese literatures is highlighted as an important factor in the cultural integration and literary dialogue between the two nations. The article emphasizes the relevance of studying the contributions of Uzbek translators to the development of intercultural communication.*

Keywords: *Chinese language, Uzbek language, translation, cultural exchange, literary work, linguistic features, translation methods, equivalence, adequate translation, translation skills, intercultural communication.*

Tarjima umumbashariy madaniyatni yaratishda muhim rol o'ynaydi. U tillararo muloqotda ko'prik vazifasini bajarib, har bir tilning o'ziga xos xususiyatlari va madaniy qadriyatlarini hisobga olgan holda turli xalqlarni bir-biriga bog'laydi. Tarjima jarayoni faqat so'zlarni o'girishdan iborat emas, balki turli madaniyatlarda o'rtasidagi chegaralarni anglash va ularni tarjima tilida yashashga imkon beradi. Ikki til va madaniyat o'rtasida tarjima qilayotganda, tarjimonning vazifasi – asl matnning ma'nosi, va o'zaro bog'liq mazmunini to'liq yetkazishdir. Biroq, madaniyatlar farqi tufayli semantik ekvivalentlik ba'zan cheklanadi. Shu sababli tarjima til va madaniyatdan iborat murakkab jarayon sifatida qaraladi.

Tarjima ma'lumot, bilim va g'oyalarni tarqatish uchun zarur bo'lib, turli madaniyatlar o'rtasida samarali muloqot va ijtimoiy totuvlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Ko'plab olimlar til va madaniyatni ajratish qiyin, hatto imkonsiz ekanligini ta'kidlashadi. Tarjimon – bu madaniy vositachi: u manba til madaniyatini matn mazmuni va uslubini yangi tilga muvaffaqiyatli yetkazadi. Tarjimonning asosiy maqsadi – o'quvchiga asl tildagi mazmunni to'liq his qilish imkonini yaratishdir.

Muhammad Ali O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasining 2007-yil 13-

sonida “Tarjima millatni jahonga tanitadi” nomli maqolasi dunyo yuzini ko‘rdi[1].

Yaxshi tarjimaning ta’rifi qabul qiluvchining tarjima qilingan xabarga bo‘lgan munosabatiga bog‘liq va bu ma’lumotni asl nusxada berilganda qabul qiluvchilarning xabarga qanday javob bergani bilan taqqoslash lozim”[2] Tarjima umumbashariy madaniyatni yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. U barcha tillarda, ayniqsa dunyoning barcha qismlarida til xususiyatlari va madaniy qadriyatlarni hisobga olgan holda bir-biriga o‘xshash bo‘lgan tillarda muloqot qilish uchun ko‘prik vazifasini bajaradi. Shunday qilib, u dunyoning barcha mamlakatlarini global tarmoqqa bog‘lash vazifasini o‘taydi. Bundan tashqari, tarjima turli madaniyatlar o‘rtasida chegaralar mavjudligini nazarda tutadi va tarjimon bu chegaralarni anglashi va ularni kesib o‘tish muqarrarligini bilishi mumkin. Madaniy o‘xshashlik va universallik bo‘lmasa, turli madaniyat vakillari bir-biri bilan muloqot qila olmaydi, tarjima ham bo‘lmaydi. Teng ahamiyatli ikkita tilni tarjima qilayotganda, tarjimonlar asl matnning o‘z ma’nosi, pragmatik va o‘zaro bog‘liq ma’nolarni yetkazishlari zarur. Biroq, ikki madaniyat o‘rtasidagi farqlar tufayli, semantik ekvivalentlik cheklanishi mumkin.

O‘zbekistonning adabiyotshunoslik sohasidagi yutuqlari Xitoyda yuqori baholandi va Xitoy adabiyoti O‘zbekistonda keng o‘rganila boshlandi. O‘zbek adabiyotidan Sadridin Ayniyning “Esdaliklar”, “Sudxo‘rning o‘limi” qissalari, “Doxunda” va “Qullar” romanlari, Zulfiyaning qator she’rlari, Hamid G‘ulomning “Mangulik” romani xitoy tiliga tarjima qilingan. “Mangulik” romani Xitoyda yarim million nusxada chop etilgani barchaga ma’lum. Shanxay Fanlar akademiyasi huzuridagi adabiyot va san’at ilmiy-tadqiqot instituti xodimlari U Gochjan va Pan Sinlin Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonini xitoy tiliga tarjima qilgan. Asar 2017-yilda nashr etilgan. Bu kitobning bir nusxasi hozirda Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasida saqlanadi. Shanxay xorijiy tillar universiteti qoshidagi Jahon adabiyoti instituti direktori Chjen Tiu 2018-yilda yozuvchi Abduqayum Yo‘ldoshning bir nechta hikoyalarini xitoy tiliga o‘giran. Xitoyning Lanjou universiteti chet tillar instituti dotsenti Di Syaosya tomonidan Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani xitoy tiliga tarjima qilinib, 2020 yilda Xitoyda chop etildi. Yaqinda Chjen Tiuning iltimosiga binoan, xitoy tiliga tarjima qilish uchun Maqsud Qoriyevning “Spitamen”, To‘lepbergen Qaipbergenovning “Narigi dunyoga, bobomga xat”, Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Besh bolali yigitcha”, Baxtiyor Abdug‘afurning “Uzbechka”, Erkin A‘zamning “Yozuvchining bog‘i” asarlaridan birini tanlab olish tavsiya etildi.

Asar nomi	Muallif	Tarjimon	Yili
“Shoh yo‘li”	Lao She	Miraziz A‘zam	1983
“Dengiz bo‘yidagi qishloq”	Ba Jin	S. Ahmad	1979
“Qizil xotin”	Mo Yan	Xurshid Do‘stmuhammad	2013
“Shafqatsiz shahar”	Lu Sin	Ozod Sharafiddinov	1960
“Oq it, qora it”	Han Shaogong	Usmon Azim	1995
Pu Sunling novellalari	Pu Songling	Ziyamammedov Jasur	2012
Musallas mamlakati	Mo Yan	Amir Fayzullo, Sevara Alijonova	2018-yil
“Otlq”	Chjan Vey	Muhammad Ali	2002
Xitoy madaniy bayramlari	An‘naviy	Ismatullayeva Nargiza	2006
Suhbat va mulohazalar	Konfutsiy	Ismatullayeva Nargiza	2010
“Qizil ko‘shikdagi tush”	Sao Sueching		
G‘arbga sayohat	Vu Chen‘eng		

Ilhom Qosimov qalamiga mansub tarjimalar: “Konfutsiy. Hikmatlar” (tarjima asari, 2010-yilda nashr etilgan); “Konfutsiy. Muhokama va bayon” (tarjima asari, 2013-yilda nashr etilgan); “Qadimgi Xitoy donishmandligi” (Xitoy mutafakkirlarining hikmatli so‘zlari, tarjima-to‘plam, 2014-yil); “Meng-zi. Donishmandlik sabog‘i” (tarjima asari, 2015-yil); “Sariq ajdar o‘gitlari: kichik hikoyalarning katta hikmatlari” (tarjima-to‘plam, 2015-yil); “Dao de jing” (“Dao va fazilatlar kitobi”) (tarjima asari, 2020-yil yanvar oyida nashr etildi); “Xitoy donishmandlari” (tarjima-to‘plam, 2024-yil); Xitoy Xalq Respublikasi Xalq Raisi Si Jinping. “Qashshoqlikdan xalos bo‘lish” (hammualliflikda tarjima qilgan asari, 2023-yil nashr etildi); “Xitoyning XX asr tarixi” (hammualliflikda tarjima qilgan asari, 2023-yil nashr etildi); “Cho‘lnoma” (badiiy asar, 2025-yil fevral oyida nashr qilindi).

Muallifi aniqlanmagan adabiyotlar

Asar nomi	Muallif	Yili
“Xitoy xalq ertaklari”	An‘naviy	1975
“Xitoy afsonalari”	An‘naviy	1981
“Xitoy she‘riyati antologiyasi”	Turli mualliflar	1987

Xitoy tiliga tarjima qilingan asarlar:

Asar nomi	Muallif	Tarjimon	Nashr ma‘lumotlari
“Esdaliklar”	Sadriddin Ayniy	Xitoylik tarjimonlar (ism qayd etilmagan)	Pekin, 1950-yillar

Asar nomi	Muallif	Tarjimon	Nashr ma'lumotlari
“Sudxo‘rning o‘limi”	Sadriddin Ayniy	Xitoylik tarjimonlar	Pekin, 1950-yillar
“Doxunda”	Sadriddin Ayniy	Xitoylik tarjimonlar	Pekin, 1958
“Qullar”	Sadriddin Ayniy	Xitoylik tarjimonlar	Pekin, 1960
She‘rlar	Zulfiya	Xitoylik tarjimonlar	Pekin, 1980-yillar
“Mangulik”	Hamid G‘ulom	Xitoy tarjimoni qayd etilmagan	Xitoy, 1980, 500 ming nusxa
“Farhod va Shirin”	Alisher Navoiy	U Gochjan, Pan Sinlin	Shanxay, 2017
Hikoyalar	Abduqayum Yo‘ldosh	Chjen Tiu	Shanxay, 2018
“O‘tkan kunlar”	Abdulla Qodiriy	Di Syaosya	Lanjou, 2020
Dunyoning Ishlari	O‘tkir Hoshimov	Valiyeva Noiba	TDSHU 2014

Xitoy va O‘zbekiston o‘rtasida madaniy va adabiy aloqalarning kengayib borishi ikki tilda yaratilgan asarlarning tarjimasiga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytirmoqda. Tarjima jarayonida nafaqat lingvistik ekvivalentlik, balki madaniy kontekstni to‘g‘ri yetkazish ham katta ahamiyat kasb etadi. Xitoy tilidan o‘zbek tiliga va o‘zbek tilidan xitoy tiliga qilingan tarjimalar xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro tushunishni mustahkamlab, madaniy merosni boyitishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli tarjimonlar til va madaniyat xususiyatlarini chuqur bilgan holda, asar mazmunini originalga yaqin shaklda yetkazishlari zarur. Bunday tarjimalar nafaqat adabiy jarayonni boyitadi, balki xalq diplomatiyasining samarali ko‘rinishiga ham aylanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

- [1] <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti/tarjima-millatni-jahonga-tanitadi-2007>
- [2] Eugene A. Nida. (2001). Language and Culture-Contexts in Translating. Shanghai: Shanghai Foreign Language Education PressG‘ulom, Hamid. Mangulik. Tarjimon ko‘rsatilmagan. 1980. 500 000 nusxa.
- [3] Navoiy, Alisher. Farhod va Shirin. U Gochjan, Pan Sinlin. 2017.
- [4] Yo‘ldosh, Abduqayum. Hikoyalar. Chjen Tiu. 2018.
- [5] Qodiriy, Abdulla. O‘tkan kunlar. Di Syaosya. 2020.
- [6] Lao She. Shoh yo‘li. Miraziz A‘zam. 1983.
- [7] Ba Jin. Dengiz bo‘yidagi qishloq. S. Ahmad. 1979.
- [8] Mo Yan. Qizil xotin. Xurshid Do‘stmuhammad. 2013.
- [9] Lu Sin. Shafqatsiz shahar. Ozod Sharafiddinov. 1960.
- [10] Han Shaogong. Oq it, qora it. Usmon Azim. 1995.

- [11] Mo Yan. Musallas mamlakati. Amir Fayzullo, Sevara Alijonova. 2018.
- [12] An'anaviy. Xitoy madaniy bayramlari. Ismatullayeva Nargiza.
- [13] Konfutsiy. Suhbat va mulohazalar. Ismatullayeva Nargiza.